



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ALBERT EYNSHTEYN
(1879-1955)

2022
YANVAR
№36



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz



www.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
3-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-3**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-3**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 36-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 23 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Xusainova Sayyora Hayitbayevna	
TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MUSIQA SAN'ATI	7
2. Roximova Gulandom Saparovna, Ro'zmetova Ozoda Ro'zmamatovna	
TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLAR	9
3. Sabirova Nazokat Ro'zmatovna, Rahmanova Iroda G'afurovna	
TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLAR	11
4. Rasulova Kamola Xazratqulovna	
GLOBALASHUV SHAROITIDA ZAMONAVIY AXBOROTNING YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA TA'SIRI.....	13
5. Рахмонов Улугбек Авазбекович	
ГАНЧКОРЛИК САНЬЯТИ ТАРИХИ.....	15
6. Jumaniyozova Shohista Berdiyevna, Xudayberganova Shirinjon Abdullayevna	
TARIX DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH BO'YICHA – METODIK TAVSIYALAR	17
7. Ruzmetova Nilufar Kamilovna, Yakubova Gulnoza Ulug'bekovna	
AMIR TEMUR DAVRIDA – MADANIY HAYOT	19
8. Sadullayeva Shakarjon Sapabayevna	
BAHOUDDIN NAQSHBAND MEROSINING SHAXSNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI.....	21



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MUSIQA SAN'ATI

Xusainova Sayyora Hayitbayevna

Farg'on'a viloyati Farg'on'a tumani 40-sonli
umumi o'rta ta'lif maktabining Tarix fani o'qituvchisi

Telefon: +998 99 322 36 70
xusainovasayyora00@gmail.com

Annotatsiya: Berilgan ilmiy maqolada Temur va temuriylar davri madaniyatidan dalolat beruvchi yana bir soha – bu musiqa san'ati haqida, Ibn Arabshoh Temur saroyida juda ko'plab musiqashunoslar, hofiz va qo'shiqchi san'atkorlar ham bo'lganligini yozishlari, Alisher Navoiy, X va XII asrlarda vujudga kela boshlagan musiqa san'atining yangi o'n ikki maqom turi, XV asrda yashab ijod qilgan shoir Ahmadiy "Sozlar munozarasi" asari haqida ma'lumot berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Temur, musiqa, qo'shiq, san'at, asar, xalq, maqom.

Temur va temuriylar davri madaniyatining yuksak rivojlanganligidan dalolat beruvchi yana bir soha – bu musiqa san'atidir. Buyuk Sohibqiron Amir Temur haqidagi manbalarda va xalq rivoyatlarida uning musiqa san'atiga juda katta e'tibor bilan qaraganligi, turli mamlakatlardan poytaxti Samarqandga ko'plab san'at shinavandalarini to'plab, bazmi jamshid davralarini musiqa va qo'shiq ixlosmandlari bilan qurbanligi hikoya qilinadi. Ibn Arabshoh Temur saroyida juda ko'plab musiqashunoslar, hofiz va qo'shiqchi san'atkorlar ham bo'lganligini yozadi: "... (Yana) Xoja Muhammad az-Zohid Buxoriy, ulug' tafsirchi, hadischi, hofiz bo'lib, Qur'on ul-Karimni yuz jildda tafsir qilgan... Qorilardan mana shular ikkalasi va (yana) mavlono Faxruddin bor edi. Qur'oni qiroatda ham, savtda ham tajvid bilan yod olgan kishilardan Abdullatif ad-Domg'oniy, mavlono Asaduddin, Sharif Hofiz Husayniy, Mahmud Muhriq al-Xorazmiy, Jamoliddin Ahmad al-Xorazmiy va musiqa ilmida ustoz bodgan Abdulqodir al Marog'iy edi".

Bu davrda musiqa san'atining rivoj topganligini shu narsadan ham bilsa bo'ladiki, Alisher Navoiy "Mezonul-avzon" asarida xalq qo'shiqchiliginin 8 turi bo'lganligini yozadi. Bu – tuyuq, changi, turkiy, orzuvoriy (yoki oruzvoriy), muhabbatnoma, mustazod va boshqalardir. Ayrim miniyaturlar, badiiy obrazlar va boshqalar xalq san'atining ham rivojlanganligidan dalolat beradi. Xalq kuylari va qo'shiqlari musiqa san'atining rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

X va XII asrlarda vujudga kela boshlagan musiqa san'atining yangi o'n ikki maqom turi bu davrga kelib yuksak bosqichga ko'tariladi, yangi kuylar bilan boyiydi. O'n ikki maqom ko'pgina kuylar birikmasidan tashkil topgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: Rost, Isfaxon, Iroq, Zirafkan, Buzruk Xijoz, Buslik, Ushshoq, Husayniy, Zangula, Navo, Rahoviy. Bu maqomlarning har biri ikki shuba (qism)dan iborat bo'lib, jami 24 shubani tashkil etadi: Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjgoh, Muxayyar, Hisor, Muboraki, Nayrez, Nishopurak, Royi Iroq, Mag'lub, Rakb, Bayot, Zabol, Avj, Navro'zi xora, Ma'mur, Ashiron, Nav ro'zi sabo, Humoyun, Nuhuft, G'azal, Arabon va Ajam. Xalq o'rtasida "Shashmaqom" (olti maqom) nomi bilan kuylanib kelinayotgan musiqa asarlari yuqorida sanab keltirilgan o'n ikki maqom zaminida shakllangandir.

Musiqa san'atining taraqqiyotini she'riyat olamidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi. Musiqa va she'riyat doimo bir-birini to'ldirib kelgan, Musiqa bilan she'riyat o'rtasidagi aloqani XV asrda yashab ijod qilgan shoir Ahmadiy "Sozlar munozarasi" asarida ajoyib badiiy bo'yoqlarda tarannum etadi. Ahmadiy majoziy xarakterda yozilgan o'zining bu asarida sozlar munozarasini beradi. Munozarada ishtirok etgan barcha sozlar: Tanbur, Ud, Chang, Qubo'z, Rubob va boshqalar o'zlaricha kerilib maqtanadilar. Nihoyat ularning munozarasiga Piri xarobot (soqiy) aralashadi va sozlarining har biriga nasihatlar qiladi, ularning har birining o'ziga xos fazilatlari borligini ta'kidlaydi. Bu asar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan didaktik ijod mahsuli hamdir. Shoir



maqtanchoq, mutakabbir va xudbin kishilarni tanqid qiladi, ularni insofga, kamtarlikka va ahillikka chaqiradi.

Xullas, musiqa san’ati taraqqiyotida Temur va temuriylar zamonida erishilgan muvaffaqiyatlar xalqimizning ma’naviy meros boyligi bo‘lib, avlodlar ongida badiiy estetik qarashlar va olivjanob insoniy fazilatlarning shakllantirishning muhim vositasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – 512 b.
2. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob// [https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/tarix/Vatan%20tarixi.%201-kitob%20\(R.Shamsutdinov,%20Sh.Karimov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/tarix/Vatan%20tarixi.%201-kitob%20(R.Shamsutdinov,%20Sh.Karimov).pdf)



TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLAR

Roximova Gulandom Saparovna
Ro'zmetova Ozoda Ro'zmamatovna
Xorazm viloyati Xonqa tumani
10 – maktab tarix fani o'qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda ayrim interfaol metodlar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: samaradorlik, mavzuga zamin, pochta qutisi, topib ko'rchi metodi.

Hozirgi vaqtida umumiy o'rta ta'lif maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarining ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirdilar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lif maktablaridagi ta'lif samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu - o'qituvchi va o'quvchilarining haqiqatni birligida izlashi va o'quvchilarining butun dars jarayonida faol ishtiroy etishidir. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo'l kelishi amaliyot ko'rsatib turibdi.

Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida olivjanob fazilatlarni mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyatni bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxtsaodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi.

Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiylar fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu” desak bo'ladi va bu ko'zguga qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q.

Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlar mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim.

“Mavzuga zamin” usuli Maqsad: O'quvchilarni o'tilgan mavzuni mustahkamlashdan oldin, shu mavzu bo'yicha o'quvchilarni darsga tayyorlash ya'ni zamin hozirlash. Bizga ma'lumki o'quvchilar mavzuni o'qituvchi tushuntirib berishi chog'ida va o'zi darslikdan o'qib o'zlashtirishi mumkin. Lekin bu degani sinfda hamma o'quvchilar o'zlashtira oladi degani emas. Chunki hamma o'quvchilarining xotirasi, fikrlash doirasi birdayin bo'lmaydi. Shuning uchun ularga turli xil o'yinlar, sahnali ko'rinishlar, baxs-munozaralar orqali darslar tashkil qilinsa, sinfdagi uncha yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar ham mavzu haqida tushuncha hosil qilibgina qolmasdan, mustahkamlab oladi. Dars jarayonida o'tilgan mavzuni mustahkamlash chog'ida, avvalombor, o'quvchilarni darsga tayyorlab olishi kerak. Yaxshi dars o'tilishi, o'quvchilarining yaxshi o'zlashtira olishi eng birinchi navbatda o'qituvchi o'quvchilarni o'ziga jalb qilishi, o'tilgan mavzuni dab-durustdan boshlab, ularga o'tilgan mavzu haqida qisqacha tasavvur hosil qilib olishiga bog'liq. Bu usul ko'proq o'quvchilarni darsga tayyorlab olishi, o'tilgan mavzuni takrorlab, mustahkamlashga zamin hozirlash uchun ishlataladi. Bu usul 5-11 sinflarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq. Guruhlar belgilanadi. O'quvchilar guruhlarga 5- 7 kishidan bo'linishlari kerak. Guruhlarga bo'lish chog'ida guruhlarning kuchlari teng bo'lishiga ahamiyat berish lozim. Har bir guruhga 2-3 ta yaxshi o'zlashtira oladigan o'quvchilarni va unga yaxshi o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarni joylashtirib bo'lish kerak.

Har bir guruh o'ziga nom qo'yish kerak. Buning uchun o'qituvchi guruhlarga quyidagicha murojaat qiladi: „Siz guruhga nom qo'yayotganda quyidagilarga e'tibor bering?

Siz guruhingizga o'tilgan mavzuning ichidan biror-bir voqeani keltirib chiqaruvchi so'zlar yoki o'tilgan mavzuning asosiy mazmunlaridan birini tashkil etuvchi so'zlar orqali nom qoying;



Guruhingiz bilan bu nomni nima uchun qo'yanligingizni aytib berish uchun tayyorlaning (1-minut vaqt beriladi). Har bir guruh nom qo'yib bo'lgandan so'ng, u guruhlardan bu nomni nima uchun qo'yanligi so'ralishi kerak.

Yuqoridagilarni o'tkazib bo'lgandan so'ng, o'quvchilar o'tilgan mavzu haqida qisqacha tushuncha hosil qilib, o'quvchilar mavzuni mustahkamlash uchun zamin hozirlanadi. Keyin o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun shu guruhlarga savollar, topshiriqlar berish mumkin.

"Topib ko'rchi" usuli.

Bunda o'quvchilardan bir nafari doskaga chiqadi. Fanga oid rasmlardan birini doskadagi o'quvchi orqasidan o'tirganlarga ko'rsatadi. O'tirgan o'quvchilar shu rasmga tegishli tushunchalarni ayta boshlaydi. Doskadagi o'quvchi rasmda nima tasvirlanganligini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.N.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.
2. Asqarov A. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari.- “O'zbekistonda ijtimoiy fanlar” 1992. № 7-8.



TARIX DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLAR

Sabirova Nazokat Ro'zmatovna
Rahmanova Iroda G'afurovna
Xorazm viloyati Xonqa tumani
10 – mактаб tarix fani o'qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda interfaol metodlarning ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: xulosa – daraxt hosilida, piramida o'yini.

Hozirgi vaqtida umumiy o'rta ta'lif maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lif maktablaridagi ta'lif samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu - o'qituvchi va o'quvchilarning haqiqatni birlashtirishda izlashi va o'quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtiroy etishidir. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo'l kelishi amaliyot ko'rsatib turibdi.

“Xulosa-daraxt hosilida” usuli

Maqsad: “Xulosa-daraxt hosilida”—Mavzuning asosiy mazmunini keltirib chiqaruvchi savollarga javob berish natijasida tahlil qilinib, yakuniy xulosani keltirib chiqaruvchi o'yinli usuldir. Bu o'yinli usul orqali o'quvchi mavzuning asosiy xulosasasini chiqarishni va bir-biri bilan fikr almashinib, voqealar bayonini yorotib borishni ta'minlaydi.

Qo'llash bosqichlari bo'yicha tavsiyalar:

1. Ko'proq o'tilgan mavzuni mustahkamlash chog'ida ishlatilishi kerak.
2. Bu usul 5-9-sinf larda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. „Xulosa-daraxt hosilida” usulini o'tkazish uvhun birinchi navbatda plakatga yoki sinf taxtasiga (1-rasmida berilgan) daraxt chiziladi va daraxt novdalariga mavzuning asosiy mazmunini tashkil etuvchi sodda savollar hamda o'quvchilarni fikrlashga chorlaydigan muammoli savollar yozib qo'yiladi. Sodda savollar yozilganligining asosiy sababi sizga ma'lumki faqat agar muammoli savollar yozilsa a'lo baholarga o'qiydigan o'quvchilar javob berishi mumkin, lekin past o'zlashtiruvchi o'quvchilar javob bera olmasligi mumkin. Shuning uchun ham soda savollar sinfdagi barcha o'quvchilar ishtiroyini ta'minlaydi. Bu esa o'quvchilar o'rtasida raqobat kelitirib chiqaradi.



4. Daraxt novdalariga yuqorida tarkibda savollar yozib qo'yilgandan so'ng, o'quvchilarning javoblari qisqartirilib, daraxtning „Javoblar” qismiga yozib boriladi. Javoblar to'g'ri yoki savoldan ozroq chetlashgan, noto'g'ri bo'lsa ham daraxtning „Javoblar” qismiga yozib boriladi. Savol tug'ilishi mumkin nima uchun noto'g'ri yoki mavzudan ozroq chetlashgan javoblar ham yozib boriladi. Buning asosiy sababi tahlil jarayonida o'quvchining hatosini o'quvchilar to'g'irlashadi va bu jarayon esa baxs-munozarani keltirib chiqaradi.



5. Daraxtning „Javoblar” qismidagi javoblar o’quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinib eng to’g’ri va eng maqbul xulosa javobi daraxtning „Javoblar” qismidan chiqqan „Javoblar xulosasi” qismiga yoziladi. Shu tartibda hamma savollarga javob berib bo’lgunga qadar davom etadi.

6. „Javoblar xulosasi” qismidagi javoblarning xulosasi o’quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinib, eng so’nggi mavzuning asosiy xulosasi daraxtning „Yakuniy mavzuning asosiy xulosasi” qismiga yoziladi. Ko’rinib turibdiki mavzuning asosiy xulosasi javoblarning bosqichma-bosqich tahlili jarayonida kelib chiqayapti.

“Piramida” o’yini



Bu metod ko’pincha yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida “Piramida” o’yini olib boriladi. Bunda To’rtala guruhga alohida mavzular beriladi, guruh a’zolari berilgan mavzu bo’yicha barcha ma’lumotlarni maxsus kartochkalarga yozishadi va piramida tasvirlangan ko’rgazmaga yopishtirib chiqadilar. Natijalar tekshiriladi noto’g’ri va takrorlangan ma’lumotlar olib tashlanadi va qolgan natijalar hisoblanadi. Eng ko’p ma’lumot yozgan guruhlar taqdirlanadi. Bunda o’quvchilar o’tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo’yicha tushunchalarni o’zlashtirib olganlik darajasi aniqlash, o’z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o’zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o’z bilimlarini bir tizimga solishga o’rgatadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. N.N.Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.
2. Asqarov A. O’zbekiston mustaqilligi sharoitida tarix fanining vazifalari.- “O’zbekistonda ijtimoiy fanlar” 1992. № 7-8.



**GLOBALASHUV SHAROITIDA ZAMONAVIY AXBOROTNING YOSHLAR
MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA TA’SIRI**

Rasulova Kamola Xazratqulovna
Zarafshon kasb-hunar maktabi
tarix fani o`qituvchisi.
Telefon:+998(93)6612326
kamolarasulova@gmail.com

ANNOTATSIYA: Bu maqolada globallashuv jarayonlari va uning yoshlar ma’naviy axloqiy tarbiyasiga ta’siri,internet va undan to’g’ri foydalanish,ta’lim sohasida zamonaviy axborotning salbiy va foydali jihatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Globallashuv, axborot, an’ana, fikr, yoshlar, ma’naviy, ijtimoiy, madaniy, milliy, internet, omma, xalq, jarayon, zo’ravonlik, tarbiya, xavf.

«Sayyoramizning ertangi kuni,farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo’lib kamolga yetishi bilan bog’liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o’z salohiyatini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratish, zo’ravonlik g’oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir».

Shavkat Mirziyoyev.

Ma’lumki, globallashuv jarayoni yer yuzidagi barcha davlatlar va millatlarning ijtimoiy hayotiga ta’sir etib, ularning iqtisodiy, siyosiy va madaniy – ma’naviy taraqqiyoti yo’nalishlarini belgilab bermoqda. Bugungi kunda turli jamiyatlar hayotida yuz berayotgan hodisalarning natijalari va oqibatlari qisqa soatlar ichida dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotini qamrab olmoqda, deb e’tirof etish mumkin. Globallashuv jarayoni shiddat bilan an’anaviy tarzda hayot kechiruvchi elatlar va millatlarning ham turmush tarzini o’zgartirib yuborayotgani aniq. O’zbekiston ham bu jarayonning ta’siridan mustasno emas. O’zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma’lumotlariga ko’ra hozir mamlakatimizda internetdan foydalanuvchilar 22 milliondan ziyod.Xolbuki, 2018-yilda 20 millionni,2010-yilda esa bor yo’g’i 2.8 millionni tashkil etgan edi. Bu bir tomonidan, xalqimizning dunyoga faol integratsiyalashayotganini anglatsa, ikkinchi tomonidan,internetdan foydalanish madaniyatini yuksaltirishni yanada dolzarblashtirmoqda.

O’zbekiston Konstitutsiyasining 29-moddasida belgilanganidek, “har kim o’zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega”. “Axborotlashtirish to’g’risida”gi,”Elektron raqamli imzo to’g’risida”gi, “Elektron hujjat aylanishi to’g’risida”gi,”Elektron tijorat to’g’risida”gi qonunlar, sohaga oid qator qaror va farmonlar mamlakatimizda axborotlashtirishning milliy tizimini va qulay axborot makonini shakllantirishga, ishonchli va xavfsiz milliy ma’lumotlar bazasini yaratishga xizmat qilmoqda. Har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik yo yovuzlik yo’lida foydalanish mumkin.Bir paytlar odamzot olovning kashf etilishi tufayli muzliklar davridan omon chiqqan bo’lsa, boshqa bir davrda esa Gerostrat o’z nomini tarixga muhrlash uchun dunyoning yetti mo’jizasidan biri bo’lgan ibodatxonaga o’t qo’yan.

Butun dunyo xalqlari o’rtasidagi ijtimoiy-madaniy hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash maqsadida ommalashtirilgan global axborot tarmog’i bugun bitmas-tuganmas axborot makoni, elektron tijorat, auktsion, kutubxona vazifasini o’tash bilan birga buzg’unchi, nosog’lom kuchlar uchun “ommaviy madaniyat” ni keng tarqatish, millatlarni qadriyatlardan ayirish,axloqsizlikni ustamonalik bilan targ’ib qilish “o’chog’i” va quroliga – ma’rifat va jaholat kuchlari kesishgan chorrahaga aylandi.

Asrimizning global muammolari qatoriga yangidan-yangi turlari bilan tilga olinayotgan kiberjinoyatchilik kirib kelganiga ham ancha bo’ldi. Uning bizga ma’lum bo’lgan virusli dasturlarni tarqatish, parollarni buzib kirish, kredit karta va boshqa bank rekvizitlaridagi mablag’larni o’zlashtirish talon-toroj qilish, shuningdek, internet orqali qonunga zid axborotlar, xususan, bo’hton, ma’naviy buzuq ma’lumotlarni tarqatish bilan bashariyat hayotiga katta xavf solayotganidan ko’z yuma olmaymiz. Ko’plab saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda har qanday axborotga o’quvchi tomonidan sharh-izoh yozish imkonи mavjud. Bu esa erkin fikr bildirish imkoniyati demakdir. Shu bilan birga, fikrlarni boshqarishga, shaxsiy qarashlarni umumiylashuviga olib keladigan vosita hamdir.Chunki globallashuvning eng katta xavfi – olomonlashuvda.



Bolalarimizni faqat o’rab-chirmab, uni o’qima, buni ko’rma deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o’rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga to’g’ri kelmaydi. Chunki odamzot baribir taqiq pardasi ortiga intilaveradi. Internet qochadigan balo-qazo emaski, uni ma’lum bir vaqtgacha to’xtatib qo’ysa. O’zini anglagan odam uchun u bitmas-tuganmas bilim manbaidir: hikmat izlasangiz-hikmat, illat-qidirsangiz illat topasiz. Undan qanday foydalanish oilaviy muhitga, tarbiyaga bog’liq.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, yoshlarimiz bugungi axborot bo’ronidan eson-omon chiqishlarii uchun, avvalo, o’z fikriga ega bo’lmog’i lozim. Bunda albatta ijtimoiy-gumanitar fanlarning ta’lim tizimadagi o’rni beqiyos. Ayniqsa tarix, tarbiya va huquq fanlarining samarali tarzda qo’llanilishi o’quvchi yoshlarning o’z maqsadiga erishishida ko’prik vazifasini o’taydi. O’z yo’li va manziliga ega odamning hayot haqida mustaqil fikri bo’ladi. Bunday insonni yo’ldan ozdir ish, chalg’itish, adashtirish juda qiyin. Xalqimiz hamisha farzandlari o’zidan uzishi, har tomonlama yetuk bo’lishi uchun kurashib yashagan. Bugun ham shunday. Globallashuv xavf-xatarlariga qarshi tura oladigan, o’z ma’naviy kuch-qudratini isbotlashga qodir avlod esa o’z-o’zidan bo’lib qolmaydi. Buning uchun esa, o’zbek fenomenida asrlar osha yashab kelayotgan or-nomus, mehr-oqibat, uyat-andisha kabi qadriyatlarni yoshlarimiz qalbida shakllantirish va kamolga yetkazish kerak bo’ladi. Zotan, bugunidan rozi va ertangi kunidan umidi bor xalqning farzandlari ezgulik va ma’rifatga intilib yashaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.O’zbekiston Konstitutsiyasi. T.:”O’zbekiston”-2019
- 2.Sh. Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvardagi Ma’naviyatni yuksaltirish bo’yicha o’tkazgan yig’iliши ma’ruzasi . <https://president.uz/oz>
- 3.Ozbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to’g’risidagi” Qonuni. 2003. 560-soni



ГАНЧКОРЛИК САНЬЯТИ ТАРИХИ.

Рахмонов Улугбек Авазбекович

Камолидин Беҳзод номидаги Миллий
рассомлик ва дизайн институти Санъат
асарлари ва месъморий ёдгорликларни
таъмирилаш мутахассислиги 2-курс магистранти,

Телефон: +998974020321

E-mail:ulugbekrahmonov443@gmail.com

Ўзбекистон, Тошкент.

АННОТАЦИЯ: Мазкур мақолада Ўзбек халқ амалий санъатида, ганч ўймакорлиги санъати тарихи, қадимги антик давр ва ўрта асрларда, декоратив-амалий санъатнинг муваффакиятли ривожининг зарурый омиллари, ганчкорлик санъати, унинг меъморий безак сифатидаги ўрни ва анъанавий меъморчилик ҳакида сўз боради.

Калит сўзлар: Ганчкорлик, Тупроққала, Даљварзинтепа, Варахша, Термизшохлар саройи, Афросиёб, алебастр, мақбара, муқарнас, меъмор.

Ганч ўймакорлиги санъати Ўзбекистон меъморчилиги тарихида муҳим ўрин тутади. Ганчкорликнинг ўзига хос тараққиёт йўли, ажойиб намуналарини, мавжуд асрий анъаналари кўпдан бери санъат муҳлислари эътиборини тортиб келмоқда.

Кўхна тарих ёдгорликларини ўрганар эканмиз, ўймакорлик санъати оддий пахса, деворлардан бошланиб, кейинроқ ганчкорий безакларга ўтганини кўрамиз. Ганчкорлик қадимий санъат турларидан бири бўлиб, дунё меъморчилигига шу жумладан Эрон, Туркия, Арабистон, Афғонистон ва бошқа Шарқ мамлакатлари меъморчилигига ўз аксини топган ва ўзига хос гўзаллиги, билан кўзни қувонтиради. Ўрта Осиё худудида яратилган, қадимги декоратив санъат асарлари ўзига хос бадиийлиги, композицияси, ишланиш услуби билан фарқ қиласди. (Тупроққала, Варахша, Термизшохлар саройи, Афросиёб).

Археологик қазилмалар ва илмий изланишлар натижасида топилган қадимий шаҳар қолдиклари, топилган асору атикалар, деворий суратлар, хайкалтарошлиқ, ўйма ганч безаклари намуналари, Ўзбекистон худудида илк меъморчилика, қўлланган декоратив амалий санъат турлари ҳакида маълумотлар беради. Жумладан қадимий шаҳарлар Даљварзинтепа, Қоратепа, Тупроққала, Варахша, Афросиёб каби ёдгорликлардан топилган хайкаллар, деворий суратлар, ганчкорлик намуналаридан, Ўзбекистон меъморчилигига ганчнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши тарихини билиб олишимиз мумкин. Ганчкорлик санъати тарихини, уч босқичга бўлиб ўрганиш мақсадга мувофиқдир. Бу тарихий босқичлар: 1) антик давр ганчкорлик санъати; 2) ўрта асрлар ганчкорлик санъати; 3) XX аср ва мустақиллик даври ганчкорлик санъатидан иборат.

Антик давр ганчкорлик санъати. Марказий Осиё меъморчилигига милоддан аввалги IV ва мелодий IV асрга келиб, «антик» деб номланган даврда, алоҳида истехкомлар характеристига ега бўлган коммунал уйларнинг катта массаси устунлик қиласди. Оилавий мулклар ёки шаҳар туар-жойлари, улар таркибига, уйлар мажмуаси, хукмдор қальяси ва ибодатхоналари киради. Монументал иншоотлар йирик лойғишт ва ғишт блокларидан қурилган. Деворлари лойғи ёки ганч (маҳаллий алебастр тури) билан шувалган. Қадимги даврларда ҳам Ўзбекистоннинг монументал ва декоратив санъати ривожланишининг юқори босқичида бўлган. Қурилиш техникаси эса бутун меъморчилик услуби билан, чамбарчас боғлиқ бўлиб, у кейинчалик Ўзбекистоннинг алоҳида худудларида ўзига хос хусусиятларга ега бўлган.

Ўзбекистоннинг жанубида, Сурхондарё вилоятида жойлашган Даљварзинтепа ёдгорлигидан, археологик қазилмалар натижасида, лойдан ясалган турли хайкаллар ва деворий суратларнинг топилган бўлиб, Ўзбекистонда милоддан аввалги IV аср мелодий III асрларида меъморчилика ганч хом-ашё сифатида қўллана бошлаганидан далолат беради. Буддавийлик ибодатхонаси ичидан топилган хайкаллар асосан лойдан ясалган бўлиб, юза қисми юпқа ганч билан қопланган ва майда безаклари ганчдан ясалиб ранг берилган ёки тилла суви қопланган эди. Деворлар асосан лойдан бўлгани боис, ганч ёрдамида текислаб сувалган, сўнгра турли деворий суратлар туширилган.



Ганчнинг аста секин қотиш хусусияти, юза қисмига ишлов беришда қулай маҳсулот бўлган. Ганч дастлаб, маҳаллий усталар томонидан гипстош ва оҳактошга мураккаб ишлов бериш натижасида хосил қилингани учун фақатгина маҳсус иншоотлар, ибодатхоналар, турли маросимларга мўлжалланган хоналар ва бой амалдорлар турар жойларини безашда қўлланилган.

Хоразмдаги Тупроккала (III аср), Бухородаги Варахша (V-VII асрлар) саройларидағи деворий безаклар ганчкорликнинг юксак санъат намуналари қаторидан ўрин олади. Афросиёб ёдгорлиги (X-XII асрлар) нафис ва нозик ганчкорлик безаклари билан ноёб деворий суратлари билан мафтун этади. Афросиёб ёдгорлиги деворий суратлари ҳам лой деворга ганчли сувоқ юзага чизилгани билан ахамиятлидир. Сомонийлар мақбараси (X аср) Бухорода меъморчилик санъати, нақадар юксалганлигини ва ривожланганлигини кўрсатади. Ана ўша даврдан бошлаб, бинокорликда юқори сифатли пишган ғишт, албастрли қоришмалар ишлатилган. Аработка мақбарасида (X аср) ҳам етук шаклдаги мураккаб ганч безакларини учратамиз. Ўзбекистон худудида илк бор Аработка мақбарасида (997й)да мураккаб Муқарнас ганчкорлик безаклари қўлланган.

Муқарнас (араб.) — меъморий безак тури; равокли коса уячаларнинг устма-уст жойлашишидан хосил бўладиган мураккаб шакл. Меъморликда асоси 4,6,8 бурчак, бўлган меҳроб, тахмон, токча ва бинонинг тепа қисмини гумбаз, ярим гумбаз кўринишига келтиришда, бинолар девори билан шифти оралиғи, устунлар бош қисмини, безатишида кенг қўлланилади. Дастлаб содда шаклга эга бўлган, кейинроқ мураккаб кўринишга кирган ҳамда, безак мақсадларида ишлатила бошланган. Муқарнас ишланадиган жойига қараб ҳар хил мураккаблиқда бўлади.

Мовароуннахрда XII аср мобайнида ганчкорлик санъати айниқса равнақ топди, меъморчиликнинг асосий безаги даражасига кўтарилди. Термизшохлар саройи ва Хаким ат-Термизий макбараларидағи ганч уймакорлик асарларини ўша давр ганчкорлик санъатининг қомуси, десак бўлади. Мақбаранинг ички қисми куфий ва насх услубидаги эпиграфик ёзувлар, гириҳ ва ислимий шакллардан иборат ранг-баранг ганчкорий нақшлар билан безалган бўлиб, ўз даврининг бетакрор меъморий обидасига айланган.

XIII-XVI асрларга келиб ганч уймакорлиги билан узвий bogланган холда кошин, парчин (майолика) ва мармар тошлардан ясалган безаклар кенг тадбиқ этилди. Айниқса XV асрлар Темурийлар даврида меъморчиликда катта ўзгаришлар содир бўлди. Бинолар ва иншоотларни куришда Хиндистон, Ирок, Эрон, Туркия ва бошқа ўлкалардан келган меъмор усталарларини жалб этилиши Ўрта Осиё меъморчилиги декоратив безак санъатини янги услублар билан бойишига ва ривожланишига олиб келди. (Бибихоним, Гўри амир) Ганчкорлик эса, асосан, бино ичкарисига хос безак сифатида сақланиб қолди ва тараққий этди. XVI-XVII асрларда бунёд этилган Шердор ва Тиллакори мадрасаларини безашда, ҳам ганч безакларидан моҳирона фойдаланилганини кўришимиз мумкин. XVIII аср охири, XIX аср бошларида ганч уймакорлиги санъатида янги услублар яратилди ва кенг тадбиқ этилди.. (Ситораи Моҳи Хоса, Худоёрхон сарой, Половцев уйи)

Амалий санъат, Ўзбек халқининг тарихан шаклланган, маданияти белгиларини ўзида чукур акс эттиради. Ганч уймакорлиги (ганчкорлик) мафтункор, жозибали, бетакрор санъат тури бўлиб, унинг анъаналари, таълантирилган, кўплаб насллари томонидан авайлаб сақланиб, қайта жонлантирилиб ва ижодий ривожланитириб келинмоқда. Уларнинг замон талаби ва вазифаларига. мос равишда қўлланилиши, Ўзбекистонда декоратив-амалий санъатнинг муваффакиятли ривожининг зарурий омилидир. Узоқ тарихий ўтмишга эга ганчкорлик санъати, халқнинг бебаҳо бойлигидир. Уни ўрганиш сақлаш ва келажак авлодларга етказиш барчамизнинг бурчимиздир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Прица И.М. Тошкент ганчкорлиги. – Тошкент: “”, 1960 г. – 60 б.
2. Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. – Ташкент: “ФАН”, 1961г.-
3. Ноткин И.И. ”Бухарская резьба по ганчу” ташкент 1961г.
4. Ремпель Л.И ”Резьба и роспись по ганчу и дереву”.академии наук.1962г.
5. Марозова М.И.”Резьба по ганчу – ташкент” .изд-во Г.Гуляма.1968г.
6. Морозова А.С.Аведова Н.А.Махкамова С.М. Узбекистон халқ санъати // Альбом. – Тошкент, 1979 г. -234 б.



**TARIX DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARNI
QO’LLASH BO’YICHA – METODIK TAVSIYALAR**

Jumaniyozova Shohista Berdiyevna

Xorazm viloyati Xiva shahri

6-sон IDUMning Tarix fani o‘qituvchisi

Telefon: +998 91 992 37 78

zumaniezovasohista@gmail.com

Xudayberganova Shirinjon Abdullayevna

Xorazm viloyati Xiva shahri

6-sон IDUMning Tarix fani o‘qituvchisi

Telefon: +99891 420 96 03

xudayberganovas50@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada, bugungi kundaxorijiy davlatlarda samarali qo‘llanilayotgan “Keys-study”, “Loyiha”, hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari, “T-sxema”, va boshqa ya’ni – “Mini-leksiya”, “Klaster”, “Venn diagrammasi” interfaol usullari haqida ma’lumotlar, shu bilan birgalikda qayd etilgan interfaol metodik tavsiyalar bo’yicha birin-ketin to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol, metod, dars, ta’lim, o‘quvchi, o‘qituvchi, klaster.

Tarix darslarini o‘tishda quyidagi interfaol metodlardan foydalanishni dars samaradorligini ortishda ahamiyati katta. Jumladan:

Keys-study inglizcha “case” – to’plam, aniq vaziyat, “study” – ta’limdir. Keysda bayon qilingan va ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etishga asoslaniladi. Keys-study – ta’lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli erishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan ta’lim texnologiyasidir.

Loyihaviy ta’lim – ta’lim modeli bo’lib, unda o‘qituvchi tomonidan loyihalash ko‘rinishiga ega, muammoni izlash, uni tadqiq etish va hal etish, muayyan, beqiyos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega natija (mahsulot)ga erishish, uni ommaviy taqdim etish va jamoatchilik tomonidan baholanishini tashkil etish va rejalashtirishni anglatuvchi, mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etiladi.

“T-sxema” metodi – bu metod ikki xil malumot: axborot, turli qarashlarni taqqoslashning universal grafik tarzda ifodalash bo‘lib, o‘quvchi talabalarni o‘rganilayotgan mavzu bo’yicha mavjud qarashlarni taqqoslash, ular asosida qaror qabul qilishga o‘rgatadi. Ayniqsa, farqlanuvchi qarama-qarshi, xilma-xil qarashlarni, malumot axborotlarni malum bir mezonlar bo’yicha ifodalash uchun nihoyatda qulay. Agar ana shu mezonlarni o‘quvchilarining o‘zi ishlab chiqsa, dars yanada samarali bo‘ladi. Odatda T-sxema bir biriga qaramaqarshi (antonim) fikrlar, qarashlar, malumotlar, axborotlarni ifodalaydi. Ularni ha/yo‘q, tarafdar/qarshi, yuqori/past, minimal/maksimal kabilar orqali T-sxema ko‘rsatish mumkin. Bunda qo‘yilayotgan maqsad o‘rganilayotgan mavzu, savol yoki qarashlarni mazmuniga ko‘ra, o‘qituvchi taqqoslash variantlarini ishlab chiqadi.

“Mini-leksiya” zamonaviy ta’limning effektiv usullaridan biri hisoblanadi. Amal qilish mexanizmi quyidagicha: o‘qituvchi 10-20 minut ichida ma’ruza o‘qidi. O‘quvchilar diqqat bilan qulq solishadi. Ma’ruza o‘qib bo‘lganidan so’ng, o‘qituvchi o‘quvchilarga 3-5 minut vaqt berib ma’ruzaning asosiy mazmunini tezis shaklida konsept qilishga imkon beradi. Konsept tuzish jarayonida o‘quvchilar noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida o‘qituvchiga yoki bir-birlariga savollar berishlari mumkin.

“Klaster” so‘zi g‘uncha, bog‘lan ma’nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da’vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag‘batlantirish uchun qo‘llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg‘otish, mavjud bilimlarni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan strategiya bo‘lib, muayyan mavzu bo’yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi. Biror mavzuni o‘rganishni boshlash paytida klasterlar tuzishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Klaster tuzishda guruhdagi barcha o‘quvchilarning ishtiroy etishi, shu guruh uchun g‘oyalar o‘zagi bo‘lib xizmat qiladi.

Venn diagrammasi Axborotni grafik asosda tashkil qilishning bu shakli umumiyligi va fark qiladigan



tamonlarga ega bo‘lgan ikki yoki uch mavzuni taqqoslash jarayonida ishlataladi. Chap doira bir mavzuning o‘ziga xos bo‘lgan tomonlari, o‘ng doirada ikkinchi mavzuning o‘ziga xos tomonlari yozib chiqiladi. Doiralarning tutashgan joylaridan esa ikkala mavzuning umumiy tomonlarini ko’rsatish uchun foydalaniлади.

Xulosa shuki, Hind faylasuflari aytganidek tajriba har qanday ish unumdorligini oshiradi. Tajribali o‘qituvchilar darsga tayyorgarlik ko‘rishi, dars jarayonida o‘zini erkin tutishi, o‘quvchilar bilan samarali muloqotga kira olishi va o‘quv jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana olishi kerak. Shunday ekan interfaol metodlardan keng foydalangan o‘qituvchilarda dars unumdorligini oshirish imkoniyati kengroq bo‘ladi. Demak, interfaol darslarni tashkil qilishda o‘quv jarayonida yakka tartibda va juft bo‘lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyixalar, rolli o‘yinlar, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashdan foydalananish mumkin. O’ylaymizki, ushbu uslubiy ko’rsatma va metodik tavsiyalar sizga shu maqsadlarni amalga oshirishga yaqindan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Tarix darslarini samarali tashkil etishda interfaol metodlarni qo‘llash bo‘yicha – metodik tavsiyalar// tarix_fanimi_oqitishda_innovatsion_texnologiyalar%20(3).pdf
2. Tarix darslarini samarali tashkil etishda interfaol metodlarni qo‘llash bo‘yicha – metodik tavsiyalar// Tari%D1%85-darslarida-pedagogik-te%D1%85nologiyalar.pdf
3. T-sxema// <https://hozir.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligito-v35.html?page=14>



AMIR TEMUR DAVRIDA – MADANIY HAYOT

Ruzmetova Nilufar Kamilovna

Xorazm viloyati Xiva shahri 12-son

umumiy o‘rta ta’lim mакtabining

Tarix fani o‘qituvchisi

Telefon: +998 91 277 27 67

nrovmetova55@gmail.com

Yakubova Gulnoza Ulug‘bekovna

Xorazm viloyati Xiva shahri 12-son

umumiy o‘rta ta’lim mакtabining

Tarix fani o‘qituvchisi

Telefon: +998 99 749 29 14

yakubova. 1987@internet.ru

Annotatsiya: Quyidagi ushbu ilmiy maqolada Amir Temurning dunyoda eng ulug‘ va buyuk shaxs, davlat arbobi, mashhur sarkarda, fan va madaniyat homiysi sifatida nom qozonishiga sabab bo‘lgan fazilatlari, Ibn Arabshohning Temurga nisbat fikri, valiahdlar bilan bog‘liq voqealar haqida qisqacha ilmiy asoslarga tayangan xolda ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, madaniyat, davlat, jahon, islom, sulton.

Amir Temurning dunyoda eng ulug‘ va buyuk shaxs, davlat arbobi, mashhur sarkarda, fan va madaniyat homiysi sifatida nom qozonishiga sabab bo‘lgan fazilatlar “Temur tuzuklari”da o‘z ifodasini topgan. Bu fazilatlar:

Birinchisi va eng asosiysi islom dini, Qur’oni Karim va uning g‘oyasiga cheksiz sadoqatda. “...har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim”, deydi u. “Yana tajribamda ko‘rib bildimki, davlat agar dinu oyin asosida qurulmas ekan, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi. Bunday saltanat yalang‘och odamga o‘hsharkim, uni ko‘rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kas-u nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigito‘sig‘i yo‘q uyga o‘xshaydi. Shuning uchun ham men o‘z saltanatim binosini dini islom, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladim.

Ikkinchisi, hayotda, davlat ishlarini boshqarishda odillik, adolat va haqiqatning ustuvorligini ta‘minlash uchun kurash. Oddiy xalq manfaatlarini himoya qilish, jabrdiydalarga madadkorlik, ig‘vogar va tuhmatchilarga ishonmaslikda: “...Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim... Fuqaro va qo‘l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiylargina in’omlar ularsdim.

Uchinchidan, davlatni boshqarish, idora qilish ishlarini halol, nasl-nasabli, asil, vijdonli, aql-farosatli, sabr-toqatli kishilarga topshirish. Temur davlat arboblari bag‘ri keng, og‘ir, vazmin, odamlarga nisbatan kek saqlamaydigan, kechirimli va g‘oyatda hush axloqlik fazilatlariga ega bo‘lishi kerak, deb hisoblar va bu fazilatlarni juda-juda qadrlar edi.

To‘rtinchidan, yuksak insoniy ahloqiy fazilatlarni ulug‘lash, noinsoniy, noaxloqiy va tubanlik ko‘rinishlariga qarshi shafqatsiz kurash. Amir Temur yozadiki: “...hozirgi damgacha o‘tgan sultonlarning qonunlari va turish-turmushlarini donolardan so‘rab-surishtirdim.

Madaniylikning bu oljanob fazilatlarini Amir Temur hazratlari ulug‘labgina qolmagan, balki bu fazilatlarning bajarilishini davlat hududida yashab kelayotgan fuqarolardan, eng avvalo, o‘zoila a’zolari tomonidan ham so‘zsiz bajarilishini talab qilgan. Hatto Amir Temurni butun qalbi-vujudi bilan yomon ko‘rgan Ibn Arabshohdek muarrih ham buyuk Sohibqironningadolatpesha ulug‘ fazilatlarini tan olib yozishga majbur bo‘lgan: “Temur tamg‘asining naqshi “rosti rasti” bo‘lib, “bu haqgo‘y bo‘lsang, najot topasan”, demakdir... Temur qo‘rmas, shijoatli, botir kishilarni itoat qildiruvchan bo‘lib, jasoratli (kishi)larni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi... U (birovdan) bir gap eshitganda dalil talab qiladigan, zimdan qarash va ko‘z ishoratlarini sezadigan idrokli kishi edi.

Amir Temur o‘ta taqvodor muslimmon bo‘lgan, islom qonunlari va shariatlari doirasidan chetga chiqmagan, U o‘z farzandlari va nabiralaridan axloqiy pok insof-diyonatli va adolatli bo‘lishni talab qilgan. Amir Temur o‘z o‘rniga valiahdlikka katta o‘g‘li Jahongir Mirzoni loyiq deb topadi. Lekin Jahongir Mirzo bevaqt bu dunyonи tark etadi. Shundan so‘ng ulug‘ Amir o‘z nabirasi Xalil



Sultonni valiahdlikka birdan-bir da’vogar deb hisoblaydi, chunki u jasur, qurqmas va mard bahodir edi. Ammo kutilmagan voqeа sodir bodadi. Xalil Sultonni ilgari Temuming jiyani, amirzoda Alining qizi Jahona Sulton begimga uylantirib qо‘ygan edilar. Xalil Sulton o‘zining qonuniy xotini bo‘la turib, amir Xoji Sayfuddinning chodisi, sohibjamol Shodimulkni yoqtirib qoladi va uni hojasidan tortib olib, yashirinchа o‘z nikohiga o‘tkazadi. Buni eshitgan Temur g‘oyatda gazablanadi. Yasovulboshini chaqirtirib “shahzodani qayda bodsa ham tutib keltirilsun va Mahdi ul Bayon og‘a turg‘on qasrga qamab qо‘yilsin, behayo Shodimulk ersa g‘ulomlardan biriga xotin qilib berib yuborilsin”, deb buyruq beradi. Xalil Sulton bobosining gazabidan qо‘rqib, mahbubasi bilan do‘stlaridan birining uyiga yashirinadi. Oradan uch-to‘rt kun o‘tgach, Saroymulkxonim, To‘kal Xonim, Amir Shohmalik va Shayx Nuriddinlar o‘rtaga tushib, shahzodani jazodan qutqazib qolishadi: Temur o‘zboshimcha nabirasining gunohidan o‘tgan bo‘lsa-da, lekin uni valiahd qilish niyatidan qaytgan.

Bukeltirilgan oddiygina dalil-xulosa buyuk davlat arbobi Amir Temurning axloqiy ichki ma’naviy dunyosining nechog‘lik pok va go‘zal bo‘lganligidan dalolat beradi. Amir Temur to‘g‘risida xalq og‘zaki ijodida ko‘plab turli mavzularda rivoyat va afsonalar tarqalgan. Ana shu rivoyatlardan birida aytilishicha, Amir Temur besh narsaga e’tiqod qо‘ygan ekan. Bular: Alloh, tafakkur, qilich, imon va kitob (bitik)dir. Demak, Amir Temuring madaniyat homiysi sifatida ulug‘ligini belgilovchi omil uning ruhining sofligi, tozaligi va islom g‘oyasi bilan sug‘orilganligidadir.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. –T.: Sharq. 2010. – 512 b.
2. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob// [https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/tarix/Vatan%20tarixi.%201-kitob%20\(R.Shamsutdinov,%20Sh.Karimov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/tarix/Vatan%20tarixi.%201-kitob%20(R.Shamsutdinov,%20Sh.Karimov).pdf)
3. Amir Temur tuzuklari// <https://library.sammi.uz/Library/Badiiy%20adabiyotlar/Temur%20tuzluklari.pdf>



BAHOUDDIN NAQSHBAND MEROSINING SHAXSNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

Sadullayeva Shakarjon Sapabayevna

Urganch tumani 27-sون мактаб оқитувчisi

Telefon: +998 (97) 458 35 47

shakarjonsapabayevna_27@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola Bahouddin Naqshbandning shaxs ma’naviy-axloqiy tarbiyalashdagi qarashlari haqida.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, kamolot, mehnatsevarlik, samimiy, axloq.

Yoshlarimizni yuksak ma’naviyatlari, har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalashda xalqimizning boy madaniyati, ulug‘ bobokolonlarimizning ma’naviy merozi beqiyos ahamiyatga ega.

Islom dunyosidagi eng mo‘tabar shaxslardan biri Bahouddin Naqshbanddir. Sayyid Muhammad Ibn Sayyid Jaloliddin Naqshband 1318-yil Buxoroda tug‘ilgan. Bahouddin yoshligidayoq pokiza, odobli, ustozlariga mehribon va zukko bo‘lgan. Bahouddin 11 yoshida Ahmad Yassaviyning hikmatlarini, shayx Azizon (Rometoniy) risolalarini o‘rgangan.

Sayyid Mir Kulol yosh Bahouddinga zikr qilish sirlarini o‘rgatgan va Bahouddin yosh bo‘lishiga qaramay, halol mehnat qilish har bir inson uchun zarurligini anglagan. Ruhiy mo‘jiza va karomatlar ko‘rsatish bilan birga hunar o‘rgangan, qalin ipakli mato – kimxob to‘qish bilan tirikchilik qilgan.

14 – asrdan keyin O‘rta Osiyo Xoja Bahouddin asos solgan Naqshbandiya tariqati shakllandi va rivoj topdi. Xoja Ahrori Valiy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ham ana shu tariqatga mansub edilar. Bahouddin butun hayoti va faoliyati islom dinini targ‘ib qilishga qaratgan buyuk shaxs sifatida “Bahouddin Balogardon”, “Devonai Bahouddin”, “Shayx Bahouddin”, “Hazrati Eshon”, “Xojai buzurg” kabi nomlar bilan insoniyat tarixida barhayot qolgan.

Bahouddin Naqshbandning shaxs ma’naviyatini shakllantirish haqidagi fikr – mulohazalari va pandu nasihatlari g‘oyat qimmatlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta‘kidlab shunday degan edi: “Agar xulqni chiroyli qilish, so‘z va fe’lni soz qilishdir. Adab saqlash – muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug‘i hamdir. Agar adabdan ozgina nuqsonga yo‘l qo‘ysang ham, nimaiki qilsang ham beadablik ko‘rinadi. Odam o‘zini bir xil sifat va ko‘rinishda olib yurishi lozim, toki odamlarda unga tasarruf (ta’sir qilish) ta’masi paydo bo‘lmasin”.

Naqshbandiy do‘stlik va o‘rtoqlikka katta e’tibor bergen va agar do‘st aybiga boqsang, do‘stsiz qolamiz, hech kim dunyoda beayb emas, degan pirhikmat hikmatlarni qoldirib ketgan. U shuningdek, yaxshilikka chorlovchi fikrlarni ham bayon etgan: “Niyat – kasb qilib topadigan narsa emas, balki u g‘ayb olamidandir. Niyating haqiqati ixtiyor ostida emas. Niyating haqiqati ixtiyor ostida emas. Agar niyat yo‘q bo‘lsa, umid natija bermayd”. “Sabr va chidamda nog‘ora kabi bo‘lmoq lozimki, u qanchalik shapaloq yemasin, biroq o‘z adabiga xilof ovoz chiqarmaydi”.

Buyuk mutafakkir mehnat va hunarga alohida e’tibor bergen. Madrasaga qabul qilinadigan bolalardan eng oldin: “Siz qanday hunarni bilasiz” – deb so‘ragan. Hunar bilmaganlarni biror hunarni egallashga, so‘ngra islom ilmini o‘rganishga da’vat etgan. Bu haqda u shunday yozgan:

Dengizdan hamisha izlamagil dur,

Odamga bir hunar bas, ezgu turar.

Naqshbandiy Bahouddinning taxallusi bo‘lib, matoga naqsh (gul) bosuvchi kasbini bildiradi. Binobarin, Naqshband o‘zining mato to‘qiydigan do‘konni borligini ham yozgan. Mazkur so‘zning ramziy ma’nosini muridning qalbiga Olloh muhabbatini naqsh etishni anglatadi. Naqshbandiya suluki qo‘l mehnati bilan shug‘ullanishni, ter to‘kib hayot kechirishni targ‘ib qiladi. Bahouddin Naqshbandning: “dil ba yor, dast ba kor”, degan shiori g‘oyat mashhurdir. Bahouddin Naqshband inson aqlini, idroki va qobiliyatini o‘sirish zarurligini alohida ta‘kidlaydi: “Kamolotda inson ahlining yo‘li shunday: bu yo‘lning chaqalog‘ini tariqat beshigiga belaydilar va tarbiyat ko‘kragidan sut emizadilar, so‘ng biror usul bilan ularni o‘zlikdan qaytaradilar. Ular Ollohdan fayz oladilar va voyaga yetadilar”.

Naqshbandiya tariqati asosida har bir insonning halol, pok bo‘lishi, o‘z mehnati bilan hayot kechirish kerakligi, sabr qanoatli bo‘lish, kamtar, samimiy bo‘lish, iymon va e’tiqodini mustahkam



tutishi, dilga xudoni jo etib, amalda xalq bilan birga bo‘lish kabi oljanob xislatlarni o‘zlashtirib borish jarayonida inson poklana boradi va Ollohga erishishga o‘zini tayyorlaydi.

Naqshbandiya tariqati kishilarni mehr – oqibat, samimiylik, halollik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, sabr – qanoatga ega bo‘lish sari yo‘llar ekan, ularda yomon illatlar, harom ishlar, ya’ni o‘g‘rilik, noplilik, xasislik, yolg‘onchilik, firibgarlik, ta’magirlik, boylikka hirs qo‘yish kabilarni qoralaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O.Hasanboyev, J.Hasanboyev, H.Homidov. Pedagogika tarixi. T.: 2004-yil.
2. K.Hashimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi, Toshkent, 2005-yil.
3. A.Zunnunov, M.Xayrullaev, B.To‘xliev, N.Xotamov. Pedagogika tarixi, 2000-yil.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ

(3-қисм)

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 31.01.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000